

MAMLAKATIMIZDA QABUL QILINAYOTGAN QONUN LOYIHALARI MUHOKAMALARIDA ISHTIROK ETISH MASALALARI

*Toshkent viloyati yuridik texnikumi o'quvchisi
To'raev Saloxiddin Turdimurot o'g'li*

Annotatsiya: mazkur maqolada fuqarolarning mamlakatimizda qonun loyihalarining muhokamalarida bevosita ishtirok etishlari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: referendum, qonun ijodkorligi, qonun loyihasi, jamoatchilik muhokamasi.

Мамлакатимизда qabul qilinayotgan barcha qonunlar aholining turmush darajasini, farovonligini oshirish uchun, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash uchun xizmat qilishini inobatga olib, qonun loyiholari puxta ishlab chiqilishi, uning qabul qilinishidan oldin jamoatchilik muhokamasidan o'tishi, fuqarolar o'z taklif va mulohazalarini erkin namoyon eta olishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, yurtboshimiz ta'kidlaganidek: **qonunning birdan-bir manbai va muallifi tom ma'noda xalq bo'lishi shart.**

So'ngi yillarda mamlakatimizda fuqarolarning qonunlar qabul qilish jarayonida faol ishtirok etishlari uchun mustahkam zamin yaratildi. Fuqarolar ham mazkur islohotlarni chuqur anglagan holda har bir qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning loyiholari muhokamalarida faol ishtirok etmoqdaki, bu bilan o'zlarining jamiyatdagi turli o'zgarishlarga beparvo emasliklarini yaqqol namoyon etishmoqda.

Umumxalq muhokamasini amalga oshirishning protsessual, tashkiliy jihatlarini O'zbekiston Respublikasining "Qonun loyihalarining umumxalq muhokamasi to'g'risida"gi Qonunida o'z ifodasini topgan.

Fuqarolarning qonun loyiholari jamoatchilik muhokamalarida ishtirokining huquqiy asoslari Konstitutsiyamizda va bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan.

"O'zbekiston Respublikasining Referendumi to'g'risida"gi Qonunning 1-moddasida quyidagilar ko'rsatilgan:

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari agar, referendumda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan fuqarolar umumiy sonining kamida besh foizini tashkil etgan fuqarolar imzosi to'plangan bo'lsa, basharti bunda imzolayotgan fuqarolar miqdori har bir ma'muriy-hududiy tuzilma (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat va Toshkent shahri) bo'yicha bir tekis va mutanosib ravishda taqsimlangan bo'lsa, referendumni o'tkazish tashabbusi huquqini amalga oshiradilar.

Huquqshunos olimlar X.Odilqoriyev, I.Tulteyev va O'.Muhammedovlarning fikricha, qonun ijodkorligi jarayonining murakkabligi shundaki, unda har safar ijtimoiy

munosabatlarning mavjud tizimiga asoslanish zarur. Ijtimoiy munosabatlar tizimi qonunchilik jarayoni uchun belgilovchi asos, moddiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi olimlarning fikrlarini inobatga olib aytish mumkinki, qonun ijodkorligi jarayoni bevosita xalqning manfaatlarini ko‘zlagan holda amalga oshiriladi. Bu borada fuqarolarning fikrlarini inobatga olish, ya’ni qonun loyihalarini ishlab chiqib, xalq e’tiboriga, muhokamasiga taqdim etish qonunlarimizning yanada mukammal, korrupsiyaviy hamda xavolaki normalardan holi bo‘lib yaratilishiga zamin yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasining referendumi (bundan buyon matnda referendum deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining qonunlarini va boshqa qarorlarni qabul qilish maqsadlarida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari yuzasidan fuqarolarning umumxalq ovoz berishidir.

Referendum saylovlar bilan bir qatorda xalq irodasining bevosita ifodasidir. Referendumda qabul qilingan qarorlar oliy yuridik kuchga ega bo‘ladi va faqat referendum yo‘li bilan bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi mumkin.

Fuqarolarning referendumda ishtirok etish huquqi qonunning **6-moddasida** ko‘rsatilgan:

Referendum o‘tkaziladigan kunga qadar yoki referendum kunida o‘n sakkiz yoshga to‘lgan O‘zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi referendumda ishtirok etish huquqiga egadir.

O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida istiqomat qilayotgan yoki turgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarosi referendumda ishtirok etishga to‘la haqlidir.

Shuningdek, qonunning **11-moddasida** O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari Referendumni o‘tkazish tashabbusi bilan chiqish huquqiga egaligi belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti referendum o‘tkazish to‘g‘risidagi tashabbusni ko‘rsatishda, referendumga qo‘yiladigan qonun loyihasini yoki o‘zga qaror loyihasini ishlab chiqishda, shuningdek masala ta’rifini (mohiyatining aniq ifodasini) belgilashda teng huquqlarga egadirlar.

Referendumda qabul qilingan qaror O‘zbekiston Respublikasining butun hududida majburiy kuchga ega bo‘ladi va O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati organlarining hujjatlari bilan biron-bir tarzda tasdiq talab qilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ hujjatlari referendum qaroriga muvofiqlashtirilmog‘i lozim.

Referendumda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim normalariga o‘zgartirish kiritishni taqozo etuvchi qaror qabul qilingan taqdirda, bu normalar referendum qaroriga muvofiqlashtiriladi.

“Qonun loyihalarining umumxalq muhokamasi to‘g‘risida”gi Qonunning

6-moddasida fuqarolarning umumxalq muhokamasida ishtirok etish huquqi keltirilgan. Jumladan, Qonun loyihalarining umumxalq muhokamasida fuqarolar quyidagi huquqlarga egadirlar:

qonun loyihalarining umumxalq muhokamasida erkin ishtirok etish;

qonun loyihalari yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga, boshqa davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat birlashmalariga, ommaviy axborot vositalariga takliflar va mulohazalar kiritish;

qonun loyihalarining umumxalq muhokamasi uchun deputatlar bilan, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining vakillari bilan tashkil etilgan uchrashuvlarda va boshqa tadbirlarda qatnashish.

Qonun loyihalarining umumxalq muhokamasida ishtirok etuvchi fuqarolar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishlari mumkin[3].

Shuningdek, mazkur qonunning **II bobi “Qonun loyihalarining umumxalq muhokamasida fuqarolarning ishtirok etish huquqlari kafolatlari”** deb nomlanib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

qonun loyihalarining umumxalq muhokamasida fuqarolarning ishtirok etishi ixtiyoriydir;

fuqarolarni qonun loyihalarining umumxalq muhokamasida ishtirok etishga majburlash taqiqlanadi;

qonun loyihalarining umumxalq muhokamasida ishtirok etishda fuqarolar teng huquqqa egadirlar;

fuqarolarning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeiga qarab qonun loyihalarining umumxalq muhokamasida ishtirok etish huquqlarini cheklash taqiqlanadi;

qonun loyihalarining umumxalq muhokamasi oshkora o‘tadi va ommaviy tusga ega bo‘ladi;

qonun loyihalarining umumxalq muhokamasiga to‘sqinlik qilishga yo‘l qo‘yilmaydi;

qonun loyihalarining umumxalq muhokamasi uning hamma ishtirokchilari uchun ochiq bo‘lishi kerak;

qonun loyihalarining umumxalq muhokamasida ishtirok etishga hech kim monelik qilishga haqli emas;

qonun loyihalarining umumxalq muhokamasi jarayonida fuqarolar qonun loyihalari bo‘yicha o‘z fikrini erkin bildirish huquqiga ega;

qonun loyihalarining umumxalq muhokamasi jarayonida hech kim qonun loyihalari yuzasidan o‘z fikrini bildirishga majbur qilinishi mumkin emas[4].

“Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O‘zbekiston Respublikasi Oliy

Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi Qonunning 16-moddasida qonunchilik tashabbusi huquqi sub’ekti qonun loyihasini Qonunchilik palatasiga kiritguniga qadar jamoatchilik fikrini o‘rganishni, shu jumladan fuqarolik jamiyati institutlarining va ilmiy-tadqiqot muassasalarining vakillari ishtirokida o‘rganishni tashkil etishga haqli[5], deb ko‘rsatilgan.

Qonun loyihalarining muhokamalarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha fuqarolarning huquq va manfaatlarini e‘tiborga olgan holda ushbu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarni yanada takomillashtirib, muhokamalarda fuqarolar ishtirokining huquqiy kafolatlarini mustahkamlash zarur.

Yuqorida fuqarolarning muhokamalarda ishtirok etishining huquqiy kafolatlari belgilangan bir qator normativ-huquqiy hujjatlarni ko‘rib o‘tdik. Biroq, shunday bo‘lsada, bu sohada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan islohotlar ko‘p.

Avvalo, fuqarolarning jamoatchilik muhokamalarida faol ishtirokini ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirmasdan turib ta‘minlab bo‘lmaydi. Shuning uchun aholi orasida huquqiy targ‘ibot-tashviqot ishlarini jadal ravishda olib borish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-son Farmoniga muvofiq, mahallalarda “Huquqiy axborot kuni” loyihasi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirliklari tomonidan muntazam ravishda qonun loyihalarining muhokamalarini o‘tkazish borasida davra suhbatlarini tashkil qilib borish lozim.

Ikkinchidan, har bir qabul qilinayotgan qonun hujjati xalq irodasini ifoda etishi, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini o‘zida mujassam etishi lozim. Buning uchun esa, fuqarolar qonun qabul qilib bo‘linganidan keyin emas, balki loyihaligidayoq tanishib chiqishlari uchun mas‘ul davlat organi tomonidan fuqarolar e‘tiboriga yetkazilishi kerak, ya‘ni qonun loyihasi keng jamoatchilik e‘tiboriga, muhokamasiga qo‘yilishi kerak. Ushbu qoidani qonunchiligimizda mustahkamlab qo‘yishimiz shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Odilqoriyev X.T., Tulteyev I.T., Muhamedov O‘.H. Ikki palatali parlament. – Toshkent: IIV Akademiyasi. 2004. – 98 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining Referendumi to‘g‘risida”gi 265-II-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/81253>
3. O‘zbekiston Respublikasining “Qonun loyihalarining umumxalq muhokamasi to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Qonun loyihalarining umumxalq muhokamasida fuqarolarning ishtirok etish huquqlari kafolatlari” gi Qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to‘g‘risida”gi Qonun.